Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317985

IV-Sho‘ba

# O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TUSHUMLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIDAGI O‘RNI: TAHLIL VA TAKLIFLAR

**Eshonov Muhammad Ayyub Xoshimjon O‘g‘li**
*Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti i.f.n Dotsent*
**Fozilov Ziyohiddin Mo‘ydinjon O‘g‘li**
*Andijon davlat texnika instituti*
*Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti*
*Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi*
**Azamov Afzalbek Yorqinjon O‘g‘li**
*Andijon davlat texnika instituti*
*Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti*
*Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi*
*afzalbekazam@gmail.com*

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida soliq tushumlarining davlat byudjeti daromadlaridagi o‘rni tahlil qilinadi. Soliq tushumlari davlat moliyaviy barqarorligining asosiy manbai hisoblanib, mamlakat iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va infratuzilmalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada 2024-yil uchun rasmiy statistik ma’lumotlar asosida soliq tushumlarining hajmi, ularning byudjetdagi ulushi hamda asosiy soliq turlarining o‘zgarish dinamikasi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: Davlat byudjeti, Soliq tushumlari, Soliq siyosati, Qo‘shilgan qiymat solig‘i, Raqamli soliq tizimi.

## KIRISH

Har bir davlatning iqtisodiy mustahkamligi, ijtimoiy barqarorligi va rivojlanish sur’atlari, avvalo, uning moliyaviy imkoniyatlariga bog‘liq. Ushbu imkoniyatlarning asosiy manbai esa davlat byudjeti hisoblanadi. Davlat byudjeti orqali aholining ijtimoiy himoyasi ta’minlanadi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, xavfsizlik kabi sohalar moliyalashtiriladi.

Davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishda soliq tushumlari yetakchi o‘rinda turadi. Soliq tizimi davlat moliyasining tayanchini tashkil etib, iqtisodiyotning barqaror ishlashi va sog‘lom raqobat muhitining yaratilishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida soliq tushumlari umumiy byudjet daromadlarining 70 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. [1]



Published: 24.05.2025

**Cite this article:** Eshonov Muhammad Ayyub Xoshimjon O‘g‘li, Fozilov Ziyohiddin Mo‘ydinjon O‘g‘li, Azamov Afzalbek Yorqinjon O‘g‘li (2025). O‘zbekistonda soliq tushumlarining davlat byudjeti daromadlaridagi o‘rni: tahlil va takliflar. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317985

*© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

Ushbu maqolada soliq tushumlarining davlat byudjetidagi o‘rni, ularning shakllanish mexanizmlari hamda so‘nggi yillardagi o‘sish dinamikasi o‘rganiladi. Tahlillar orqali soliq siyosatining samaradorligini baholash hamda mavjud muammolar va takomillashtirish yo‘llari muhokama qilinadi.

**ASOSIY QISM**

Soliq — bu davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy tartibda undiriladigan pul mablag‘i bo‘lib, u davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va umumiy manfaatlarni ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Soliqlar bevosita davlat byudjetining daromad qismini shakllantiradi va iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlash mexanizmi vazifasini bajaradi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq tushunchasi, uning turlari va undirish tartibi aniq belgilangan. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, O‘zbekistonda quyidagi asosiy soliq turlari mavjud:

1. Yagona yer solig‘i
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)
3. Foyda solig‘i (yuridik shaxslar daromadidan)
4. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i
5. Aktsiz solig‘i
6. Mol-mulk, transport va yer solig‘i

Ushbu soliqlar umumiy davlat daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Jumladan, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining 72,1% qismini soliq va majburiy to‘lovlar tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich soliq tushumlarining davlat moliyaviy siyosatidagi strategik ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Shuningdek, soliq siyosati yordamida davlat iqtisodiyotni rag‘batlantiradi, sohalararo tenglikni ta’minlaydi va ijtimoiy himoya tizimini qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlari iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Soliq tushumlarining barqarorligi va oshib borishi davlat byudjetining ijrosiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, soliq ma’murchiligini takomillashtirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar orqali soliq salohiyatini to‘liq safarbar etish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishida soliq tushumlari asosiy o‘rinni egalladi. Rasmiy statistikaga ko‘ra, 2024-yil davomida umumiy byudjet daromadlari 318,9 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa,

shundan 229,7 trillion so‘m yoki 72,1 foizi soliq va majburiy to‘lovlar hisobidan tushgan. [3]

Soliq tushumlari quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha shakllangan:[30]

| Soliq turi | Tushum (trln so‘m) | Ulushi (%) |
|---|---|---|
| Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) | 96,3 | 30,2 |
| Yuridik shaxslar foyda solig‘i | 34,8 | 10,9 |
| Jismoniy shaxslar daromad solig‘i | 24,5 | 7,7 |
| Aktsiz solig‘i | 22,6 | 7,1 |
| Yer, mol-mulk va transport solig‘i | 12,1 | 3,8 |
| Boshqa soliqlar | 39,4 | 12,4 |

Ushbu raqamlar soliqlarning nafaqat umumiy daromaddagi o‘rnini, balki qanday turlari ustunlik qilayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, QQSning yuqori salmog‘i iqtisodiyotning iste’mol va ishlab chiqarish zanjiri orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat moliyaviy salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda soliq tushumlarining o‘sishini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1. Raqamli soliq tizimining joriy etilishi (my.soliq.uz, E-NDS, onlayn nazorat-kassa texnologiyalari);
2. Yashirin iqtisodiyotni legallashtirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar;
3. Soliq bazasining kengayishi;

Soliq to‘lovchilarga berilayotgan imtiyozlarning optimallashtirilishi.

Masalan, QQS bo‘yicha 2023-yilga nisbatan tushumlar 17,3%ga oshgan. Bu raqam iqtisodiy faoliyat va iste’molning jonlanganidan dalolat beradi.

Biroq, mavjud muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim hududlarda soliq tushumlarining pastligi, qishloq xo‘jaligi va norasmiy sektorning to‘liq soliq bazasiga jalb qilinmagani, ayrim yirik kompaniyalarning daromadlarini yashirishi kabi omillar mavjud.

Shu sababli, soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va soliq madaniyatini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

[30] *Ushbu jadval muallif tomonidan tayyorlandi.*

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini soliq tushumlari tashkil etadi. Jumladan, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 72,1 foizni tashkil qilgani soliq tizimining moliyaviy barqarorlikda hal qiluvchi o‘ringa ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i va jismoniy shaxslar daromad solig‘i davlat byudjetining asosiy moliyaviy manbalari bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, soliq tushumlarini yanada oshirish va tizim samaradorligini kuchaytirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Soliq ma’murchiligini raqamlashtirishni jadallashtirish – sun’iy intellekt va analitik platformalarni keng joriy etish orqali soliq to‘lovchilarning faoliyati doimiy monitoringda bo‘ladi.

2. Yashirin iqtisodiyotni legallashtirish – norasmiy daromadlar va noqonuniy faoliyat turlarini aniqlab, soliq bazasiga jalb qilish zarur.

3. Hududiy soliq tushumlarini muvozanatlashtirish – past tushumli viloyatlarda biznes muhiti va soliq yuki bo‘yicha alohida strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.

4. Soliq imtiyozlarini tahlil qilish va maqbullashtirish – faqat ijtimoiy-iqtisodiy samarasi isbotlangan imtiyozlargina saqlanib qolishi lozim.

5. Soliq madaniyatini oshirish – aholining soliq to‘lashga bo‘lgan munosabati va tushunchasini oshirish maqsadida keng ko‘lamli axborot-targ‘ibot ishlari olib borilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot.
2. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). Soliq kodeksi (yangi tahrir). Qabul qilingan sana: 2020-yil 30-dekabr, №ОРҚ–654.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasi soliq turlari va tushumlar statistikasi. Olingan: https://www.soliq.uz/uz/statistics
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. (2023). O‘zbekiston Respublikasi soliq turlari va tushumlar statistikasi. Olingan: https://www.soliq.uz/uz/statistics

# ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ СОПУТСТВУЮЩИХ УСЛУГ В АУДИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Чинбердиев Пулатжон Лочинбоевич**
*Андижан "UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY"*
*НВУЗ. Старший преподаватель кафедры экономики.*